



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 113-117 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MINTAQADA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI



**Raximov T.J**

Urganch davlat universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, PhD, dotsent.

e-mail: [tuxtabek.r@urdu.uz](mailto:tuxtabek.r@urdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirishda eksportning o‘rni va hozirgi holati tahlil qilinib, uni istiqbolda rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflar yoritib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль и современное состояние экспорта в развитии сферы услуг региона, а также приводятся выводы и предложения по его дальнейшему развитию.

**Abstract.** This article analyzes the role and current state of the export in the development of the service sector in the region, and provides conclusions and suggestions for its future development.

**Kalit so‘zlar.** Mintaqa, xizmatlar eksporti, eksport, xalqaro bozor, turizm, to‘lov balansi.

**Ключевые слова.** Регион, экспорт услуг, экспорт, международный рынок, туризм, платежный баланс.

**Key words.** Region, export of services, export, international market, tourism, balance of payments.

**Kirish.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muhim masala bo‘lib qaraladi. Bu maqsadga eksportni rivojlantirish orqali erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala xizmatlar eksportini rivojlantirish uchun zarur bo‘lib, bu borada qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlar, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga alohida e‘tibor qaratilgan [2]. Shunday ekan, xizmatlar eksportini rivojlantirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muhim masala bo‘lib qaraladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Eksportni rivojlantirishda xizmatlar sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

“Eksport” so'zi lotincha “exporto” so'zidan olingan bo'lib, “chiqaraman” degan ma'noni anglatadi. Odatda, ushbu tushuncha bir mamlakatdan boshqa mamlakatga har qanday moddiy boyliklarni, kapitalni, bilimlarni, mehnatni va hokazolarni eksport qilishni anglatadi [3]. O'zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi qonuniga muvofiq, eksport tashqi savdo faoliyatining ikkita tarkibiy qismidan biri u bo'lsa, ikkinchi qismi esa import bo'lib qaraladi. Biroq, jahon bozori rivojlanishining hozirgi bosqichida turizm sohasi xizmatlar eksportining muhim segmenti sifatida qaraladi. Jahon eksport tarmoqlari reytingida turizm yoqilg'i va kimyo sanoatidan keyin oziq-ovqat ishlab chiqarish va avtomobilsozlik sanoatidan oldingi uchinchi o'rinda turadi [4]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi qonunida [1] ushbu tushunchaning ikkita ta'rifi mavjud. Birinchisi tovar eksportiga va ikkinchisi esa ish yoki xizmat eksportiga tegishli bo'ladi. Tovarlar eksporti qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarni qayta import qilish majburiyatisiz O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish belgilanadi.

Xizmat ko'rsatish iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi mintaqaviy va milliy xizmat ko'rsatish bozorlarini takomillashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Hamda xalqaro savdoning yangi bosqichi sotish ob'ekti sifatida xizmatlar ko'rsatilayotgan eksport-import operatsiyalari amaliyotini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonga xalqaro munosabatlarning globallashuvi, transmilliy tuzilmalarning rivojlanishi va xalqaro savdo tarmoqlarining paydo bo'lishi, xalqaro biznesda biznes yuritish standartlarini yagona shaklga keltirish hamda iste'molchilar talablari va xohishlari o'zgarishi kabi omillar ta'sir ko'rsatdi [5].

So'nggi yillarda ko'pchilik mamlakatlarda xizmatlar ishlab chiqarilishining oshishi, xizmatlarning sifati yaxshilanishi, xizmatlarning xalqaro savdoda rivojlanishi va ushbu sohada aholining bandligi oshishini kuzatish mumkin. Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. U chet el valyutalari hisobiga chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lib, uning bir qismi milliy chegarada amalga oshiriladi. Masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta va telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga esa sayyohlik xizmati ko'rsatish va hokazo shular jumlasidandir [6]. Mazkur tadqiqotlar bevosita xizmatlar sohasida eksport munosabatlarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Xorazm viloyati mintaqasida eksportni sanoat yoki qishloq xo'jaligida emas, ya'ni xizmatlar sohasida rivojlantirish zarur. Viloyat xizmatlar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha yuqori salohiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ushbu salohiyatdan to'liq foydalanish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Buni samarali amalga oshirish etish va istiqbolda xizmatlar eksportini rivojlantirish uchun tashqi bozorda xizmat ko'rsatishning xususiyatlarini alohida e'tiborga olish zarur.

Fikrimizcha, xizmatlar eksportini rivojlantirishda mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqish lozim. Chunki, Xorazm viloyati xalqaro bozorda turizm xizmatlari bilan bevosita raqobatbardosh hisoblanadi. Anig'ini aytganda, turizm jahon iqtisodiyotining samarali

sohasi bo'lib hisoblanadi. Turizmni rivojlantirish ko'plab iqtisodiy-ijtimoiy muammolarga yechim topishda muhim rol o'ynaydi. Shu orqali qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratiladi va mamlakat to'lov balansining ijobiy o'sish dinamikasi yaxshilanadi.

Shuningdek, eksport salohiyatini oshirishda tarmoq ichidagi va tashqi omillardan ham samarali foydalanish zarur. Ichki omillar tarkibi davlat tomonidan ta'sir qiladigan ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan iborat bo'ladi. Tashqi omillar esa bozor kon'yunkturasini o'zgarishi, inflyatsiya darajasi hamda xom ashyo yetkazib berish shartlari bilan tavsiflanadi. Tashqi omillar korxonalar faoliyati natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Bunday holatda salbiy omillar paydo bo'lishining oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Mintaqada faoliyat ko'rsatadigan korxonaning eksport salohiyati tashqi va ichki salohiyat kabi asosiy qismlarga ajratiladi. Korxonaning tashqi salohiyati mahsulotlarni to'g'ridan-to'g'ri sotish bilan bog'liq bo'lib, u tashqi iqtisodiy omillar, eksport mahsulotlarini sotish, logistika va xizmat ko'rsatish faoliyati hamda korxonaning innovatsion salohiyatini o'z ichiga oladi. Korxonaning ichki eksport salohiyati esa eksport uchun mahsulot ishlab chiqarish va tayyorlash bilan bog'liqdir. Shunga muvofiq, ichki eksport salohiyatini tahlil qilish korxonalar resurslaridan foydalanish, eksport mahsulotlari raqobatbardoshligi va korxonalar faoliyati samaradorligini o'z ichiga oladi.

Eng muhimi mintaqada eksport salohiyatini o'z vaqtida baholab turish maqsadga muvofiq. Buning uchun korxonalar ekspert tahlil usullariga murojaat qiladilar. Ushbu usul mavjud muammoni o'rganish uchun mutaxassislarini keng jalb qilish tizimiga asoslanadi. Tizimga umumlashtirilgan natijalar asosida korxonalarini eksport salohiyati to'g'risida aniq va ishonchli xulosalar chiqariladi. Ekspert baholash orqali kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalarni prognoz qilish, korxonaning tashqi bozorlarga chiqishiga imkon beradigan shart-sharoit va omillarni ta'sirini aniqlash hamda natijalarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

Viloyatga hos bo'lgan yana bir xususiyat yuk tashish xizmatlaridir. xalqaro yuk tashish bozorini shakllantirish uchun zamonaviy talablarga javob beradigan infratuzilma tarmoqlarini yaratish lozim. Bunday infratuzilmalar qatoriga axborotlashtirish markazi (xaydovchilarni vaqtini, xarajatini tejash, bosib o'tadigan yo'lini qisqartirishga imkon beradi), moddiy infratuzilma, jumladan, logistika terminalini (yuqori texnologiyalar yordamida jahon standartiga mos keladigan yuklarni qayta ishlash imkonini beradi) yaratish lozim.

Eksport xizmatlarini oshirishning yana bir muhim manbai sifatida xorijiy investitsiyalar yordamida barpo etiladigan korxonalar hisoblanadi. Ushbu turdagi korxonalar mamlakatimizda faoliyat ko'rsatib, bank, moliya, sug'urta xizmatlarining oshishiga sharoit yaratadi.

Mintaqa eksport sohasining istiqbolli yo'nalishlaridan biri ta'lim xizmatlaridir. Bunday xizmatlar tarkibiga unsurlar sifatida mamlakatimizning xorijdagi ta'lim muassasalari va o'qituvchilari kiradi. Shuningdek, mamlakatimizdagi ta'lim muassasalaridagi xorijlik talabalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari ham eksport xizmati hisoblanadi. Shu bois, xorijiy talabalarni jalb qilish uchun oliy ta'lim muassasalari xalqaro bozorda faol reklama siyosatini amalga oshirishlari zarur. Viloyatda xizmatlar eksportini rivojlantirishda asosiy ustunliklardan biri tarixiy va antiq dizaynlarga asoslangan qurilish

xizmatlaridir. Viloyatning ana shunday noyob xususiyatini xalqaro bozorda faol reklama qilish orqali qurilish xizmatlari eksportini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Xizmatlar eksportini rivojlantirishda tibbiy xizmatlarning o'rnini ham alohida ta'kidlash lozim. Bugungi kunda viloyat eksport tarkibida tibbiy xizmatlarni ulushi mavjud emas. Bu borada mamlakatimizda tibbiy xizmatlarni sifatini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur muammoni hal etish va tibbiy xizmatlar eksportini yo'lga qo'yish lozim.

Ushbu tahlillar asosida kuzatadigan bo'lsak, Xorazm viloyati tashqi savdo aylanmasi yuqoridagi omillar ta'sirida dinamik xususiyatlarga ega bo'lib, uning tarkibida eksport ko'rsatkichi hajmi ham ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda (1-jadval).

**1-jadval. Xorazm viloyatining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport ko'rsatkichi hajmi, mln. AQSh dollari [7]**

Ko'rsat-kichlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Tashqi savdo aylanmasi	211,4	216,6	256,0	272,0	557,7	469,3	517,2	787,3	871,7
Eksport hajmi	111,4	95,6	122,7	102,1	146,9	169,6	231,2	247,0	296,7

Ushbu keltirilgan jadvalga asosan, Xorazm viloyati mintaqasi bo'yicha 2015-yilda 211,4 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa-da, 2023-yilga kelib esa 871,7 mln. AQSh dollarini tashkil etgan yoki o'rtacha 4,1 barobarga o'sgan. Uning tarkibida eksport ko'rsatkichning hajmi mos ravishda 111,4 mln. AQSh dollariga va 296,7 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan yoki o'rtacha 2,7 baravarga o'sgan.

**Xulosa.** Xizmatlar eksportini xalqaro va mintaqaviy bozorda amalga oshirish mumkin. Viloyatning xizmatlar sohasi raqabatbardoshligi xalqaro bozor talablariga javob bermasa, mahsulotlarni mintaqaviy bozorlarda eksport qilish mumkin. Shuningdek, xizmatlar eksporti tovarlar eksportiga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. Buning asosiy sababi bo'lib xizmatlar ko'rsatishga yirik kapital qo'yilmalarning talab etilmasligidir. Shu bois, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosiy maqsad sifatida u orqali xizmatlar eksportining samaradorligini oshirish lozim. Bu o'z navbatida mintaqaga kirib keladigan xorijiy valyuta oqimini ko'paytiradi, to'lov balansini musbat saldogga erishishini ta'minlaydi, yalpi hududiy mahsulot hajmini oshiradi va budget mustaqilligi ta'minlanadi. Bularning barchasi aholining turmush farovonligini yaxshilashga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi "O'zbekiston respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 77-II-son Qonun. Manba: <https://lex.uz/docs/67345>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/3107036>
3. Пособие по экспортной деятельности (для начинающих экспортеров Узбекистана). – Т., 2007. - с. 7.
4. Экспорт услуг. / под ред. д-ра экон. наук, проф. Г.А.Карповой. – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2020. - с. 8.

5. Колесников Е.И. Маркетинговые тенденции на рынке подарков и деловых сувениров. // В сборнике: Декоративно-прикладное искусство в социокультурном пространстве России Сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции. - Белгород, 2017. - С. 183-189.

6. Shodmonov Sh.Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: Moliya, 2002. - 414 b.

7. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

